



**BADIIY ASAR ANTROPONIMLARIDA LUG`AVIY QATLAM MASALALARI
(TOHIR MALIKNING IJODI MISOLIDA)**

Axmedov Atoulllo Raxmatovich, Hamroyeva Maftuna Rasulovna

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malikning badiiy asarlarida qo`llangan kishi nomlarining lug`aviy qatlamlari, ijodkor uslubida ulardan foydalanishning ahamiyati, tilda tutgan o`rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, fikr-mulohazalar badiiy asardan olingan parchalar vositasida ochib berilgan.

Kalit so`zlar: antroponimlar, urf-odat, din, badiiylik, badiiy asar, kishi nomlari, uslubiyat, qatlam, lug`aviy, Arab, fors-tojik, badiiy uslub, adabiy til, badiiy til, borliq.

“Lug`aviy qatlam” deganda turli genetik manbaga mansub, muayyan miqdorga ega bo`lgan so`zlarning turli tarixiy davrlarda til leksik sistemasida qatlamlanishi ko`zda tutiladi. Antroponimlarda ham ma`lum lug`aviy qatlam mavjudki, u o`z tarixiy taraqqiyotiga ega. Bir tildan ikkinchi tilga ism o`zlashishi mumkin. Masalan, turkiy tillarda genetik jihatdan, lug`aviy asosiga ko`ra turkiy bo`lgan so`zlar qadimdan mavjud. Keyinchalik turkiy tillarga mo`g`ulcha, fors-tojikcha, arabcha ismlar o`zlashgan. Bulardan arabcha va fors-tojikcha ismlar hajman salmoqli o`rin tutgan hamda ma`lum davrlarda o`zbek tili antroponimiyasida muayyan antroponimik qatlamlarni shakllantirgan.

Til leksik qatlami to`xtovsiz o`zgarib turadi. Bu jarayon lug`at tarkibida yangi so`zlarning paydo bo`lishi, mavjud so`zlardan ayrimlarining eskirib, iste`moldan chiqishi, leksik ma`nosini o`zgartirib, yangi ma`no kasb etishi kabi jarayonlarda ko`rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o`zgarishi bilan uzviy bog`langan holda leksika boyib boradi. XX asrda barcha xalqlar qatori o`zbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan o`sib, taraqqiy etdi. O`zbek tili lug`aviy qatlamiga baynalmilal so`zlar keng ko`lamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to`xtovsiz o`sib bormoqda. O`zbek tili leksikasida o`z va o`zlashgan qatlam, shuningdek, o`z qatlam tarkibida umumturkiy so`zlar va ulardan yasalgan o`zbekcha so`zlar mavjud. O`zlashma qatlam tarkibida forscha, arabcha, ruscha-baynalmilal so`zlar bor.

Adib Tohir Malik badiiy asarlarida qo`llangan ismlar lug`aviy qatlamiga ko`ra rang-barangligi bilan til leksikasini boyitadi.

Fors-tojikcha ismlarning o`zbek tiliga o`zlashishida fors tilida yozilgan tarixiy obidalar tili, o`zbek-tojik xalqlarining qo`shnichilik munosabatlari, madaniy-ma`naviy, tarixiy-etnografik udumlarning mushtarak va o`xshashligi, bu ikki xalq orasida quda-andachilik va oilaviy munosabatlar asosiy omil bo`lgan. Fors-tojikcha ismlar o`zbek antroponimlari tizimiga shu darajada o`zlashib, singib ketganki, o`zbek aholisi uni o`z tili mahsulidek qabul qiladi. Tohir Malik badiiy asarlarida fors-tojik qatlamiga oid *Doniyor* (yaqinlar, do`stlar yoki bilimli, dono yoki qadimiy yahudiylar fikricha, Allohning ehsoni, sovg`asi, marhamati), *Jahongir* (olamni bo`ysindiruvchi, fath etuvchi, g`olib, muzaffar), *Zebi* (go`zal, xushro`y, zebo), *Norxo`ja* (xo`jalar naslidan bo`lgan qizil xolli bola), *Sarvixon* (tikka o`sadigan, xushqomat daraxt, kelishgan xushqomad qiz), *Sardor* (yetakchi, boshliq; urug` yoki qabila boshlig`i, lashkar boshlig`i, qo`mondon), *Hamdam* (do`st, o`rtoq, sodiq, vafodor do`st, otasiga, boshqa bolalarga do`st, esh



bo'lib yursin), *Shopo'lat* (po'latdek mustahkam, o'g'il ulg'ayib ulug' martabalar sohibi bo'lsin) ismlarni uchratish mumkin.

Bolaga bu kabi fors-tojik ismlarini qo'yishda chaqaloqning ziyrak, zukko, dono, go'zal, ko'rkam, chaqqon, kuch-qudratli, halol, gunohsiz, adolatparvar, dilkash, saxiy, ulug' martabali inson bo'lishini xohlash kabi motivlar asosiy o'rin egallaydi. O'zbek ismlari fondining tarkibiy qismlaridan birini diniy ma'noli asli arabcha bo'lgan nomlar tashkil qiladi. Bu nomlar o'zbek tiliga O'rta Osiyoda islom dini keng tarqalgach, mahalliy aholi musulmonchilik rasm-rusumlariga amal qila boshlagach kirib keldi. Arabcha diniy ma'noli nomlarning bunchalik keng udum bo'lib ketishi sabablarini anglash uchun islom dinining bolani nomlashga oid ko'rsatma va qoidalarini bilish lozim bo'ladi.

Mana shunday arabiy ismlar qatlamiga kiruvchi nomlarni Tohir Malik badiiy asarlarida ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, *Abbos* (qovog'i soliq, badjahl, beshafqat yoki dovyurak, jangovar. Muhammad payg'ambar tog'asining nomi), *Aqida* (qat'iy ishonch, ixlos, qizni yashab ketadi, deb qat'iy umid qilish), *Anvar* (yorug' nurli, toleyi porloq bola), *Arofat* (Makka-yu Madina oralig'idagi tog' (tepalik) nomi, hajga borganlar to'planuvchi joy), *Asqarali* (kenjatoy o'g'ilni Ali o'z panohida asrasin degan ma'noni ifodalaydi), *Ahmad* (Allohga ko'p hamd-u sanolar aytuvchi kishi yoki maqtovg'a, olqishga sazovor. Bu ism Muhammadning sifatlaridan biri), *Ahmadboy* (Allohga ko'p hamdu-sanolar aytuvchi kishi yoki maqtovg'a, olqishga sazovor), *Davron* (davr sursin, umri shodon bo'lsin, baxtiyor o'tsin), *Javlon* (chiroyli va shahdam qadamlar tashlovchi, harakatchan, chaqqon), *Jaloliddin* (dinning ulug'vorligi, shavkati, shukuhi; dinning buyukligi, mukammalligi yoki dinning ulug', shavkatli farzandi), *Jamoliddin* (dinning ravnaqi, barkamolligi, mukammalligi yoki dinning barkamol, sodiq xizmatkori), *Jur'at* (jasoratli, matonatli, shijoatli), *Zayniddin* (dinning ko'rki, bezagi, diniy nafosat yoki dinning ko'rki bo'luvchi bola), *Zokirxo'ja* (to'lqinlangan, hayajonlangan, quvnoq, baxtiyor, zikr qiluvchi), *Zubayda* (ayolning eng yaxshisi, a'losi), *Komil* (etuk, barkamol, kam-ko'stsiz, nuqsonsiz, donishmand. Bu nom Muhammad (s.a.v.)ning sifatlaridan biri bo'lgan), *Qobil* (iste'dodli, qobiliyatli; kuchli qudratli yoki yuvosh, tarbiya ko'rgan yoxud orzu va tilaklarimiz bajo bo'lib berilgan bola), *Qosim* (taqsimlovchi, inson qismatini belgilovchi. Bu nom Muhammad (s.a.v.) o'g'lining ismi bo'lgan. Shakllari: Qosimboy, Qosimjon, Qosimbek, Qosimtoy), *Latifa* (mehribon, g'amxo'r qiz yoki muloyim, nafis, pokiza qiz), *Latofat* (nazokatli, mehribon qiz), *Mavluda* (muqaddas kunda tug'ilgan bola), *Matluba* (so'rab, iltijo qilib erishilgan, xohlangan, orzu qilingan qiz), *Mashhura* (taniqli, obro'-e'tiborli qiz), *Ma'suma* (pokiza, gunohsiz, bokira), *Munisa* (do'st, o'rtoq, sirdosh, sodiq do'st), *Murod* (murod-maqсадli yoki orzu qilingan, qo'msalgan bola), *Muhammad* (maqtovg'a, olqishlarga sazovor), *Muharram* (muharram oyida (hijriy yil hisobida birinchi oy) tug'ilgan bola), *Nazira* (va'da qilingan va guldek zebo qiz), *Naima* (baxtli, iqboli baland qiz), *Nozima* (tartibga, ma'lum nizomga solingan, ya'ni tartibli, intizomli, sarishta), *Nozimxo'ja* (tartibga keltiruvchi, tartibga soluvchi yoki tartibli, intizomli), *Olim* (bilimli, bilimdon, donishmand), *Rahmatullo* (Allohning muruvvati, shavkati tufayli erishilgan bola), *Risolat* (elchilik, payg'ambar avlodiga mansub qiz), *Sabaxon* (tong yeli, shabadasi, yoqimli, muloyim yoki sahar paytida tug'ilgan bola), *Sabohiddin* (din tongi; dinning nuri; yog'dusi, ziyosi), *Saida* (baxtli, saodatmand qiz. Shakllari: Saidabibi, Saidaxon, Saidabonu), *Samad* (abadiy, boqiy, mangu turuvchi. Bu nom Alloh Taoloning sifatlaridan biri), *Sobit* (mustahkam, mahkam yoki kelishgan, xushbichim, chiroyli), *Sodiqjon* (sadoqatli, rostgo'y, chin do'st), *Sojida* (sajda qiluvchi, sig'inuvchi, xudojo'y, taqvodor), *Sohib* (ega, xo'jayin, yo'ldosh, do'st), *Sultonmurod* (baland martaba egasi bo'lmish o'g'il tug'ildi), *Tolib* (bilim istovchi, qo'msovchi; bilim ixlosmandi, o'quvchi, shogird yoki tilab, iltimos qilib olingan bola), *Umida* (orzu qilingan, kutilgan qiz) kabi arabcha ismlar T.Malik asarlarida salmoqli o'rin



egallagan.

Quyida Tohir Malik ijodida arabiy qatlamga xos antroponimik shakllar qoʻllangan parchalarni kuzatamiz: *Endi uning oʻgʻli haqida gap ketsa “mulla Abdulvahob” deb tilga olinadigan boʻlgan edi. Madrasaga kirganidan beri Abdulvahob qishlogʻiga birrov boʻlsada, kelib-ketmadi. Qamariddinning farmoni bilan yigitlar boyvachcha tilga olgan odamlarni olib kelgani ketishdi. Davron oʻshanda unga tayinli bir gap aytolmagan edi. Keyinchalik oʻzi shaharda oʻqib, ishlab yurgan kezlarda uning bu gapini koʻp esladi, mulohaza qildi. Talʼat mutlaqo nohaq edi. U shaharlarni maqsadsiz kezdi. Institutga ham bemaqsad kirdi. Shuning uchun oxirigacha oʻqigisi kelmadi. U yashamoqning mazmunini (garchi koʻp oʻqigan boʻlsa-da) yaxshi anglab etmagan edi. Shu sababli umri besamar oʻtayotganaday tuyulardi. – Murodillanikidandir? – dedi ikkinchisi. – SHunaqa boʻlsa kerak, – dedi Yoʻlchivoy. – Mahmudbek Tarzini bilarsizlar, axir? – dedi Asadulla toqati toq boʻlib. – Sardor Tarzimi? Omonulloxonning padarzani, – dedi soqoliga oq oralagan afgʻon sovuq ohangda.*

Oʻzbek tili antroponimiyasida ikki hamda uch tilga oid ismlarning qoʻshilishidan hosil boʻlgan nomlar ham uchraydi. Jumladan, *Dilmurod* fors va arabcha, *Zokirxoʻja* arabcha va fors-tojikcha, *Nargiza* fors-tojik va yunoncha, *Olamgir* arabcha va fors-tojikcha, *Salimxoʻja* arabcha va fors-tojikcha, *Xoliqberdi* arabcha va oʻzbekcha soʻzlar qoʻshiluvidan hosil boʻlgan. Yozuvchi Tohir Malik asarlarida mana shunday ismlar koʻp oʻrinda qoʻllanib, maʼlum maqsadni ifodalab kelishga xizmat qilgan. Ikki tildagi soʻzlar asosida hosil boʻlgan ism egalari qatnashgan qahramonlarni asardan olingan parcha orqali kuzatsak: *Zokirxoʻjaning sovuq oʻlkadagi bir necha kunlik umri, bir chindim hikoyasi necha yillardan beri Jahongir bilan tirik yuribdi. Jahongir Zokirxoʻjaning omonat gaplarini topshiray deb uning akasini ikki marta qidirdi. Nargiza erinibgina oʻrnidan turib, kiyimini almashtirish uchun javon tomon yurdi. Zokirni yoʻtal tutdi. Har yoʻtalganida ichaklari buralib azob bera boshladi. Ichki bir ovoz “qoʻshnilarni yordamga chaqir”, deydi. Salimning bir oʻzi katta uydagi divanda chalqancha tushib, ingrab yotgan edi. Asrorni koʻrib, nimagadir koʻzlarini yumib oldi.*

Islom dini va arab tilining taʼsiri ostida oʻzbek tilida paydo boʻlgan ismlarning Tohir Malik ijodida koʻp qoʻllangani yozuvchining lingvistik bilimi, dunyoqarashi, lisoniy imkoniyatdan amaliy foydalanish mahoratini koʻrsatadi. Ijodkor asarlarida bunday ismlarning aksariyat holda toʻliq varianti ishlatilgan. Jumladan: – *Abdusamad, inim, siz yuklar ila mashgʻul boʻling, biz bora turamiz, – dedi doktor Xudoyor. Toʻngʻich oʻgʻliga “Samad” deb ism qoʻyib, shu yoshga qadar “Samadjon”, deb erkab chaqiruvchi onaga “Abdusamad” deyilishi ajab tuyuldi. U oʻgʻlining doktor Xudoyorga dastlab uchrab “Ismim Samad” deganida “As-Somad – Allohning sifatlaridan biri, yaʼnikim, butun maxluqotning ishini bitiruvchi, barcha hojatlarni soʻraydigan Zot, demakdir. Siz bilan biz esa Allohning qullarimiz. “Samad” desangiz, Xudo boʻlib qolasiz. Ismni toʻgʻri talaffuz etmak lozimdur. Siz “Samad” emas, “Abdusamad”siz”, – deb tanbeh eshitganini bilmas edi.*

Islom dini va arab tilining taʼsiri ostida oʻzbek tilida paydo boʻlgan ismlarning Tohir Malik ijodida koʻplab qoʻllanilganligining guvohi boʻlishimiz mumkin. Ijodkor asarlarida bunday ismlarning toʻliq, toʻgʻri variantlaridan foydalanganligi esa tahsinga loyiq. Demak, yozuvchi ijodida, uning uslubiyatida diniy eʼtiqod va tushunchalarning asosiy tamoyil ekanligi asarlarida qoʻllanilgan kishi nomlari orqali bilinib turadi. Ayni damda ijodkor badiiy asar tilining oʻziga xosligini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳмад Ҳодий Мақсудий. Шаръий ҳукмлар тўплами. Тошкент, 1990. 12-бет.



2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал - Бухорий. Ҳадис. VI. Тошкент, 1992. 132-бет
3. Бегматов Э.А. Номлар ва одамлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 12;
4. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
5. Rasulovna, Hamroyeva Maftuna. "Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work)." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
6. Rasulovna H. M. Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work) //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10.
7. Hamroyeva M. R. The ways of using integrative approach in primary school lessons //Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 198-200.
8. Hamroyeva, Maftuna Rasulovna. "The ways of using integrative approach in primary school lessons." *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. 2021.
9. Hamroyeva, M. R. (2021). The ways of using integrative approach in primary school lessons. In *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 198-200).
10. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
11. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций(buxdu.uz).– 2021. –Т.3.– №. 3.
12. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очилова Г. О. Педагогическая технология– целостная система образовательного процесса //новые педагогические исследования: сборник статей IV. – 2021. – С. 20.
13. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya daralarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
14. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
15. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций(buxdu.uz).– 2021. –Т.3.– №. 3.
16. Nurillayevna, Abdullayeva Feruza. "Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses." *European journal of innovation in nonformal education* 2.3 (2022): 47-50.
17. Abdullayeva F. Matematika daralarida interfaol metodlardan foydalanish //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
18. Xayrulloeva D. System of Creative Exercises and Tasks in Primary School Mother Tongue Textbooks //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
19. Xayrullayeva D. N. Q. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi ijodiy mashq va topshiriqlar tizimi //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1235-1242.
20. Xayrulloeva D. The gradual development of native language textbooks for grades 3-4 in primary school //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
21. Nurova Y.U. Etnolingvistika va etnologiya munosabati. Til va adabiyot ta'limi. T., 2002-y 12-son. – 43-45 b.